

Eng yaxshi loyiha uchun Xalqaro professional tanlov - 2021

Rossiya Federatsiyasining Milliy tadqiqotchilar va dizaynerlar uyushmasi tomonidan "Eng yaxshi loyiha uchun Xalqaro professional tanlov - 2021" o'tkazilishi e'lon qilingan.

Uyushma mazkur tanlovda ishtirok etish uchun Uzbekistan oliv ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar va doktarantlarni taklif etgan.

Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan loyihalar 2017-yildan keyin qurilgan (amalga oshirilgan) obyektlarga tegishli bo`lishi kerak. Ayniqsa, alohida nominatsiya doirasida yosh mutaxassislar (30 yoshdan katta bo`Imagan) talabalar, magistrantlar va doktorantlar tomonidan yaratilgan va amalga oshirilgan loyihalar qayd etiladi.

Xalqaro professional tanlov g`oliblarini taqdirlash marosimi 2021-yil noyabr oyida Moskva shahrida bo`lib o`tishi rejalashtirilgan. Tanlov g`oliblari loyihalarning taqdimot materiallari Uyushma veb saytiga joylanadi va federal okruglaridagi ko`rgazmalarga taqdim etiladi. Tanlov natijalari bo`yicha barcha g`olib loyihalar tavsifini o`z ichiga olgan katalog shakllantiriladi.

Tanlovda ishtirok etish bepul.

Ishtirok etish uchun arizalarni qabul qilish muddati: 2021-yil 11-oktyabr.

Arizalar konkurs@nopriz.ru_elektron manzili orqali qabul qilinadi.

Tanlov bilan bog`liq bo`lgan batafsil ma`lumot bilan <https://konkurs.nopriz.ru>_veb -sahifasi orqali tanishish mumkin.